

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan
2024 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda - “NKMK” AJ, Jamiyat*) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida joriy yil uchun **9 ta** banddan iborat **“Yo‘l xaritasi”** tasdiqlandi va ijrosi nazoratga olindi.

“NKMK” AJ faoliyatida monopoliyaga qarshi kurashish, uning talablarini buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlar yuzasidan xabar beruvchilar uchun Jamiyatning rasmiy veb-saytida alohida elektron tizim va aloqa kanallari tashkil etilgan.

Shu bilan birga, Jamiyatda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali ochiqlik va monopoliya to‘g‘risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko‘rib chiqish reglamenti” tasdiqlangan va ushbu reglament asosida xabarlar qabul qilinishi yo‘lga qo‘yilgan.

Jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini samarali tashkil etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va Jamiyat ishchi-xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, brifinglar hamda seminarlar o‘tkazildi.

Komplaens xizmati tomonidan Jamiyatning ishchi-xodimlariga O‘zbekiston Respublikasining **“Raqobat to‘g‘risida”gi** Qonunning mazmun mohiyatini tushuntirish maqsadida o‘tgan davr davomida **131 marotaba** huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **7 462 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta‘minlandi.

Targ‘ibot tadbirlari Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi xuzuridagi Raqobat siyosati va iste‘molchilar xuquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida tashkil etildi.

Xususan, Jamiyatning Markaziy kon boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi va “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasining buxgalteriya, moddiy-texnik ta‘minot, marketing, sotish va shartnomalarni ta‘minlash bo‘limlarining xodimlari o‘rtasida Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni bartaraf qilish yuzasidan seminarlar o‘tkazildi.

Mazkur seminarlar to‘g‘risidagi axborot va ma‘lumotlar Jamiyatning rasmiy veb-saytiga hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi.

Bundan tashqari, Komplaens xizmatining mas'ul xodimi joriy yilning sentabr oyida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi yo'nalishida tashkil etilgan o'quv kursida o'z malakasini oshirib, maxsus sertifikatga ega bo'ldi.

Shuningdek, "NKMK" AJning 2024 yil 2 iyuldagi 418-son buyrug'iga asosan jamiyat faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida Komplaens xizmati (raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari ijrosi yuzasidan) bilan majburiy tartibda kelishish belgilangan.

Komplaens xizmati tomonidan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini huquqiy va raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari hamda korrupsiyaviy ekspertizasidan o'tkazish tartibi joriy etilgan. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha jami **6466 ta** (5575 ta buyruq va 891 ta farmoyish) ichki idoraviy hujjatlar ekspertizadan o'tkazildi. Ekspertiza natijasida **466 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

"NKMK" AJda 2024 yil 1-choragida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi mumkin bo'lgan sohalardagi xavflar o'rganildi. Buning natijasida, **947 ta** funksiyalar baholanib, shundan **3 ta** "yuqori", **45 ta** "o'rta" va **899 ta** "past" darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024 yil 20 fevralda **46 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Jumladan, xaridlar sohasi bo'yicha **81 ta**, buxgalteriya sohasi bo'yicha **29 ta** va xodimlar bilan ishlash sohasida **25 ta** funksiyalardagi xavflar tahlil qilindi. Natijada **3 ta** xavflarni bartaraf etish bo'yicha taklif kiritildi va tegishli dasturda aks ettirildi.

Jamiyatda xaridlar sohasida "Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha" Komissiyasi tomonidan **6 ta** tender va **26 ta** tanlash hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi.

Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan **60 ta** kontragentlarning faoliyati tekshirildi. Hisobot davrida **1 ta 3,5 mlrd.** so'mlik tanlovning asossiz bekor qilinishi oldi olindi.

Bundan tashqari, "NKMK" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazorat qiluvchi Komissiya tomonidan **19 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o'tkazildi.

Joriy yilda Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va amalga oshirilgan ishlar haqida komplaens tizimi faoliyati yuzasidan jamiyatning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari

orqali jami **6 ta** axborot va ma'lumotlar joylashtirildi.

“NKMK” AJ faoliyatida Komplaens xizmati ma'sullari tomonidan kelgusida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish qo'mitasi hamkorligida tizimda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish yuzasidan tegishli choralar ko'rilishi ma'lum qilinadi.

Komplaens xizmati boshlig'i



R.F.Avezov